



## O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O‘RNI VA FAOLIYATI

**Bo‘ronova Munira Abdixalilovna**

*Samarqand viloyati Nurobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga  
qarashli 46-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida maktab psixologining roli, vazifalari va olib boriladigan psixologik ishlar yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va individual xususiyatlarini aniqlash orqali ularni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *kasb-hunarga yo‘naltirish, maktab psixologi, qiziqish, qobiliyat, kasb tanlash, diagnostika.*

### Kirish

Zamonaviy jamiyatda o‘quvchilarni kelajak hayotga tayyorlash, ularning o‘z qobiliyat va imkoniyatlariga mos kasb tanlashiga yordam berish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda maktab psixologining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kasb tanlash shaxsning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va individual ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq.

Kasb-hunarga yo‘naltirishda psixologning asosiy vazifalari:

Maktab psixologi tomonidan kasb-hunarga yo‘naltirish quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

#### 1. Psixologik diagnostika

Psixolog o‘quvchilarning:

qiziqishlari,

qobiliyatlari,

intellektual darajasi,

temperament va xarakter xususiyatlarini

maxsus test va metodikalar orqali aniqlaydi.

Qo‘llaniladigan metodikalar:

Holland kasbiy qiziqishlar testi

Klimovning “Inson–kasb” tipologiyasi

Qobiliyat va intellekt testlari

So‘rovnoma va suhbatlar

#### 2. Psixologik maslahat va suhbatlar

Psixolog o‘quvchilar bilan individual va guruhviy suhbatlar olib borib:

kasb tanlashdagi ikkilanishlarni kamaytiradi,

o‘ziga ishonchni shakllantiradi,

real imkoniyatlarni to‘g‘ri baholashga yordam beradi.



Ayniqsa 8–11-sinf o‘quvchilari bilan kasb tanlash mavzusida chuqur suhbatlar muhim hisoblanadi.

### 3. Ma’rifiy va targ‘ibot ishlari

Psixolog tomonidan:

“Kasblar olami” mavzusida treninglar,  
kasblar haqida psixologik ma’ruzalar,  
kasb tanlashda xatolar va stereotiplar haqida tushuntirishlar  
o‘tkaziladi.

Bu tadbirlar o‘quvchilarda kasblarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

### 4. Ota-onalar bilan hamkorlik

Kasb tanlashda ota-onalarning ta’siri katta bo‘lgani sababli psixolog:  
ota-onalar yig‘ilishlarida chiqish qiladi,  
farzandning qobiliyatini inobatga olish zarurligini tushuntiradi,  
majburlab kasb tanlatishning salbiy oqibatlarini izohlaydi.

### 5. Pedagoglar bilan hamkorlik

Psixolog sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda:  
o‘quvchilarning o‘qishga munosabati,  
kuchli va sust tomonlari,  
kasbiy moyilligi haqida ma’lumot almashadi.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog‘lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo‘lishga intilish tuyg‘usini shakllantirish maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

Shu boisdan ular kasbga yo‘naltirish sohasidagi o‘z faoliyatida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba’zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug‘diribgina qolmay, kasbga yo‘naltirish maqsad va vazifalarining qo‘yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. SHu sababdan ham kasbga yo‘naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo‘naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga 9 yo‘naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish muammosiga oid e’lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o‘quvchilarning e’tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo‘naltirishga doir etarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida qaratish lozim. Jumladan, mintaqa sharoitlarini, milliy an’analarini hisobga olib o‘quvchilarni kasblarga uchun ta’lim muassasining kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan o‘quvchilarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o‘rtasida uzviy aloqadorlikni ta’minlash alohida dolzarblik kasb etadi

Respublikamizda yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan bu kabi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz mintaqa xususiyatlarini, milliy anʼanalarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim boʻladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talabalari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yoʻnaltirish shakl va metodlarini takomillashtirishning yangi yoʻllarini qidirishga toʻgʻri keladi. Kasbga yoʻnaltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim oʻrin tutadi. Bular orasida xalq xoʻjaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yoʻnaltirish jihatlari bilan oʻzaro bogʻliq tarzda talabalarning mustaqil mashgʻulotlarida koʻrib chiqishi tavsiya etiladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim boʻlgan maktabning roli har qachongidan koʻra oʻsdi. Shu munosabat bilan oʻquvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash taʼlim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni toʻgʻri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat koʻp jihatdan kasbning qanchalik toʻgʻri tanlanishiga bogʻliq. Kasbni toʻgʻri tanlash har bir maktab oʻquvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos boʻlishi uchun uning sogʻligʻini, oʻzlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan koʻra koʻproq qaror topadi va namoyon boʻladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda boʻlib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zoʻr qiziqish bilan qarasa, oʻz ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, oʻshandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand boʻladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng koʻp naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning gʻoyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shugʻullanayotgan ishini yaxshi koʻrsa, bundan u xursand boʻladi, qoniqish hosil qiladi, zoʻr tashabbus koʻrsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi.

Maktab oʻquvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat boʻlishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos boʻlib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yoʻlida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada maʼlumotli boʻlish zarur, hozirgi asrimizda bunday maʼlumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga boʻlgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari obʼektiv zaminga ega boʻlib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qoʻyilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xoʻjaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy taʼlim maktabida mehnat poletexnika taʼlimi sharoitida kasbga yoʻnaltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.



Kasbga yoʻnaltirish oʻquvchilarga politexnik maʼlumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir. YOsh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda boʻlishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud boʻladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular oʻz oʻyinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil boʻlib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga etkazish, bolalarni oʻrab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qoʻllar faqat mehnatdagina mohir qoʻllariga aylanadi, mehnatsiz hech narsani oʻrganib boʻlmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur.

Umumiy taʼlim maktablarida, zavod va fabrikalarda, oʻquv yurtlarida kasbga yoʻnaltirish ishlarini oʻtkazish zaruriyatini turmushning oʻzi taqozo etmoqda. Bu narsa qayta qurish yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotgandir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: oʻquvchi tanlagan kasb ogʻzaki tushunchagina boʻlib qolmasligi, oʻquvchi oʻz qobiliyatlarini yangi kasbda sinab koʻrishi, ushbu kasb toʻgʻrisidagi tushunchasi qanchalik toʻgʻri ekanini xolisona tekshirib koʻrishi lozim. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, bunga oʻqitishning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bogʻlangan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega boʻlishidir. SHu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat joʻshqinligiga koʻchirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha boʻlgan yoshdan 12 boshlanadi. Ana shu paytdan eʼtiboran bolalarni boʻlgʻusi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda oʻrganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik maʼlumotni ola turib, shu asosda oʻzlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. “Kim boʻlsam, ekan?” muammosi “Qanday odam boʻlish kerak” muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirishga oid ishlarni taʼlim yoʻllari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak. Maktabda kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlarini yoʻlga qoʻyishda anʼanaviy amaliy mashgʻulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik oʻyin, konferentsiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda oʻtkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Maktabda oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish birgina mehnat taʼlimi oʻqituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir.

Maktabda fan oʻqituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bogʻlab oʻtishsa, maktab psixologi va rahbariyati oʻquvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini

hisobga olgan holda ta`lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o`quvchilarga kasb tanlashlarida ko`mak bergan bo`lishadi. Shu bilan birga takrorlash zarurki, magistrlar O`zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi o`quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo`naltirish tizimini takomillashtirish – ish o`rinlarini bo`shab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qo`yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ratsional va samarali bandligini ta`minlashdagi kasb-hunarga yo`naltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasbhunarga bo`lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta`lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo`riqish holatlarini oldini olishga yordam beradi.

### **Xulosa**

O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish — bu faqat kasblar haqida ma`lumot berish emas, balki shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish jarayonidir. Ushbu jarayonda maktab psixologi markaziy o`rin tutib, o`quvchilarning kelajak hayotida to`g`ri tanlov qilishiga psixologik yordam ko`rsatadi. Psixolog tomonidan olib boriladigan tizimli va ilmiy asoslangan ishlar o`quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Atamuratova Surayyo Mammatjonovna. "O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish chora tadbirlari" Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 86-90.
2. O`zbekiston Respublikasining «Milliy kadrlar» dasturi. Ma`rifat gazetasi..
3. B. X. Raximov “Ta`lim tizimida bo`lajak o`qituvchi shaxsning kasb madaniyati” Samarqand
4. M. Ochilov “Muallim qalb me`mori” T., “O`qituvchi”
5. M. F. Ziyaeva “Bo`lajak tibbiyot xodimining kasbiy yo`nalganligini shakllantirish”
6. "International Scientific Conference “Economy of Integration”- ICEI 2015" - Admir Čavalić